

**Farid USMON**

**QUYOSH  
RASMIJ**

**She'rlar**



**«Kamolot» nashriyoti.  
2000-yil.**

Farid USMON

Quyosh rasmi. She'rlar

«Kamolot» nashriyoti. 2000-yil.

## **H u r m a t l i b a l a l a r !**

Bir qator kitoblar muallifi Farid USMON nomi Siz she'rsevar o'quvchilarga yaxshi tanish. Uning keyingi «Men kichikmas kattamas» she'riy to'plami sizlarda katta qiziqish uyg'otgan bo'lishi tabiiy. Ushbu «Quyosh rasmi» kitobi ham o'ylaymizki, yaxshi taassurot qoldiradi. Ayniqsa, Vatanni sevish, millat uchun qayg'urish tuyg'ulariga yo'g'rilgan she'rlari albatta bir umrlik hamrohingiz bo'lib qolgusidir.

# VATAN

Ona diyorum mening,  
Aziz vatan, gul vatan.  
Sen haqingda kuylayman,  
Bo'lib sho'x, bulbul vatan.  
Quvnoq qo'shiqlarimga  
Jo'r bo'ladi bolalar.  
Baxtga to'liq bag'ringda,  
Ochilgan gul lolalar.  
Ozodlikdan emding nur,  
Jahonda yagonasan.  
Sen bizday farzandlarga,  
Aziz ota-onasan.  
Ona diyorum mening,  
Aziz O'zbekistonim!



# **Qorabayir**

Toychog'imming ismi sodda -  
Qorabayir.

Muskullari po'lat yanglig' -  
Katta chayir.

Yer tepinib suvliq chaynar -  
Yarashadi.


Ko'plar unga eng zo'r ot deb  
Qarashadi.

Rostdan ham u G'irko'k tulpor  
Avlodidan.

Go'ro'g'libek mingan otning  
Ajdodidan.

Muskullari po'lat yanglig' -  
Qattiq, chayir.

Chopsa tolmas to'pichog'im -  
Qorabayir.



# **Usta**

Ne'mat ishlashni hushlar,  
Randa ushlashni hushlar.  
Ish topar tek turolmas.  
Taxtalarni qirtishlar.  
Ishlatadi boltani,  
Ishlatadi teshani.  
Asboblarni dadasi  
Qo'ygan unga ishonib.  
Goho javon, goh sandiq,  
Goho eshik-rom qilar.  
U yasagan buyumlar  
Ko'rgan kishin rom qilar.  
O'zi kichik bola-yu,  
Lekin ishi kattadir.  
Hamma uni chindan ham  
Usta debon aytadir.



# Sovun

Qo'l yuvganda,  
Yuz yuvganda,  
Sovun bizning oshnamiz,  
Erta turib  
Sovun bilan  
O'zni yuva boshlaymiz.  
Toza bo'lar yuzimiz-u,  
Toza bo'lar qo'limiz.  
Pokizalik o'rtog'imiz -  
Doim ochiq yo'limiz.



# **Qiziq ish**

Do'stlar qarang,  
qiziq ish  
Yetib keldi  
bu yil qish!  
Rasm solmas  
oynaga.  
Navbat bermas  
chanaga.  
Dalalarga,  
ko'chaga.  
Kunduzmas, yo'q  
kechada  
Tuzikroq qor  
yog'madi -  
Bu-chi, menga  
yoqmadi.



# **Jon kirsa**

-O'yinchoqqa jon kirgizib,  
Ishlasa - a, ne bo'lg'ay?  
Manov toychoq jím turmasdan  
Kishnasa - a, ne bo'lg'ay?  
-O'yinchoqqa jon kirgizsa  
Qo'g'irchoq inson bo'lur.  
Toychog'ing hech tek turolmas  
Doim chopag'on bo'lur...



# O'rgatuvchi

-Quyonni boksga  
Kim o'rgatgan?  
So'rarsiz.  
Keling bizning ko'chaga,  
Trenejni ko'rasiz.  
Katta va keng hovlida  
Har kun qiziq tomosha.  
Ko'chadagi bor bola  
Boks ko'rgani shoshar.  
Quyonlar qo'lqop kiyib,  
Musht otar bir-biriga.  
Xushtak chalsa to'xtashib  
Qarar treneriga.  
Qoidani buzishmas,  
Yo'q sira g'irrom-g'olib.  
Boksyorlarni Alisher  
Turar tartibga solib.



# **Shaharlik tog'a**

Tog'am mening katta olim  
Katta bitta shaharda.

Bo'lib turar ba'zan-ba'zan  
Olis ilmiy safarda.

Uzoq-uzoq shaharlarga  
Oylab-yillab ketadi.

O'sha joydan eslab bizni  
U - bu sovg'a etadi.

Yuboradi tog'am xar gal,  
Shahardagi pishloqdan.

Xatlarida yozar: pishloq  
Juda tansiq qishloqda.

Ukam va men pishloq olib,  
Pishloqlarni "so'yamiz".

Kunday joyga olib chiqib,  
Qurtop qilib qo'yamiz.



# **Har kim o'z o'yi bilan**

Uzun agat ichida  
Sudralardi chuvalchang.  
Eshitganday bo'lди u  
Kimir chalib qoldi chang.  
Qulq soldi va ko'rdi  
Chirillaydi chigirtka.  
O'tirgancha bemalol  
Unmay qolgan chigitga.  
Dedi: - Xormang, kuyingiz  
Biram quvnoq biram soz.  
Balki shunday o'tarsiz,  
Qo'shiq kuylab butun yoz.  
-Eh, nimasin aytasiz,  
Hamma yoq qaqir kesak.  
Bundayin xush hayotda  
Arziydi biz kerilsak.




# Sayrda

Yuring chiqaylik qirga,  
Kuzataylik shaharni.  
Taklif qildim adirga  
Xabib, Ali, Zafarni.  
Yo'q deyishmas. Chopamiz  
Ura! deb qir tomonga.  
Ozni yetib qolganday  
Sezamiz keng osmonga.  
Avtobuslar ko'rinar,  
Pastda gugurt qutiday.  
Traleybus o'rmalar  
Yo'lda ipak qurtiday.  
Minoraning gumbazi,  
Tovlanadi beqasam.  
Qator-qator binolar  
Kaftday joyda jamul-jam.  
Rost gap bizning Andijon  
Shaharmisan shahar-da.  
Zo'r ta'ssurot qoldirdi  
Ali bilan Zafarda.

# **Alifbe**

Quyosh rasmi solingan  
Alifbe chin quyoshim.  
Uni qo'lga olaman,  
Yettiga yetgach yoshim.  
Quyosh bo'lib, u mening  
Yo'limni etar porloq  
Fikr-u hayollarimni  
Tonglardek qilar oppoq.  
Ko'nglimda gul ochilar,  
Bo'lib boraman chaman.  
Alifbeni shuning - chun  
Dil-dilimdan sevaman.



# **Shamol nega shamollamas?**

Shamol nega shamollamas,  
Chuchkirmas, yo yo'talmas?  
Og'rimaydi boshi hatto  
Issig'i ko'tarilmas?  
Uchramaydi doktorga ham  
Ehtiyoj yo'q doriga.  
Aytolmaydi hech kim shamol  
Qachon, qay payt og'rigan.  
O'ylab-o'ylab bildimki u,  
Rostdan polvon shamoldir.  
Ko'p yugirib turganidan  
Sog'lom ham barkamoldir.



# **Suv bilan**

Oyim har gal:

- erinmasdan

Mevalarni yuv, - deydi.

Sog'liq uchun zararli

Mikroblarni quv, - deydi.

Xo'p deyman-u lagan to'la

Mevalarni yuvaman.

Oyim aytgan mikroblarni

Suvlar bilan quvaman.



# **Qo'g'irchoqning qo'ng'irog'i**

Qo'g'irchoqoy Nozimaga  
Qilib qoldi qo'ng'iroq.  
Dedi: - Qalay, ahvollaring,  
Yuribsanmi, jon o'rtoq.  
Mayli, katta bo'lib ol sal.  
O'rgan yurish-turishni.  
Eplab qolsang meni xiyol  
Ko'tarishni - tushishni.  
Uch - to'rt og'iz so'z o'rgansang,  
Yupatishga yarashar.  
Qisqasi shu: bo'lganingda  
Ikki yarim, uch yashar.  
Katta qizcha atalib sen -  
Go'yo lola bo'lamiz.  
Xuzuringga boraman men,  
Ona - bola bo'lamiz.

# **Polizda**

Handalakning po'chog'idan  
Qayiq qildim.

Tuproqqa suv qo'ydim, qorib  
Ayiq qildim.

Ayig'imni o'tqazdim-u  
Qayig'imga.

-Dunyoni kez suvda,-dedim  
Ayig'imga.

Rozi bo'lди suzib ketdi  
Ayiqqinam.

Ayig'imni olib ketdi  
Qayiqliqinam.



# **Tog'larimga yarasham**

Sharsharam, hoy sharsharam!  
Tog'larimga yarasham,  
Toychog'imning yo'lidek,  
To'lqinlanib oqasan.  
Bir tutam shu'la bo'lib,  
Dilimga o't yoqasan.  
Har tong turib tovlanib,  
Oqishingga qarayman.  
Sen qalbimga baxsh etgan  
G'urur bilan yayrayman.  
Sharsharam, jon sharsharam,  
Tog'larimga yarasham!



# **Guvala qildik**

Yerni yorib Loyni qorib, Qilib ketdik Guvala.	Goh qiyqirib, Yumalab. Sezmay qoldik Bir xandak loy, Dumalab.
Rustam, Ali Va men ya'ni Uch og'ayni, Uch bola.	Rustam, Ali Va men ya'ni Uch og'ayni, Uch bola.
Ishlab bizlar Basma-basga Bir-birimiz Quvalab.	Qilib qo'ydik Kun botmasdan Talay-talay Guvala.
Goh chopqillab, Hazillashib,	




# **Majnuntol**

Majnuntolning  
Kokillari  
Tolim-tolim.  
Rustam uni  
Erkalab der:  
-Tolim! Tolim!  
Suv bo'yiga  
Ekdim sizni,  
Tez o'ssin deb.  
Soyangizda  
Katta-kichik,  
O'tirsin deb.



# **Qo'g'irchoq**

Qo'g'irchoq, ko'p qiziqsan,  
Qornim och, non demaysan.  
Sovuqda sovqatmaysan,  
Issiqda terlamaysan.  
Quriqshadi tomog'im,-  
Demaysan,suvlamaysan.  
Bizlardan, yo qochmaysan,  
Yoki sen quvlamaysan.  
Ko'tarsa jim turasan,  
Erkalanib qo'llarda.  
Unitilib qolasan,  
Xovlidagi yo'llarda...



# Yo'qolgan quloq

-Uyimizda nimagadir  
Bugun quloq yo'qoldi...  
Tushunolmay hayron bo'ldim,  
Oyim shunday deb qoldi.  
Hech bunaqa gap chiqmagan  
Edi mening oyimdan.  
Qulog'imni ushlab ko'rsam  
Xayriyatki, joyida.  
Juda qiziq, qulog'ini  
Yo'qotgan kim bo'ldiykin?!  
Hammamizning qulog'imiz  
Joyida edi, lekin...  
Dadam menga ko'zin qisib  
Miyig'ida kulardi.  
Ravshan akam yerga qarab,  
Boshin egib turardi.



# MUNDARIJA

Vatan .....	3
Qorabayir .....	4
Usta .....	5
Sovun .....	6
Qiziq ish .....	7
Jon kirsa .....	8
O'rgatuvchi .....	9
Shaharlik tog'a .....	10
Har kim o'z o'yi bilan .....	11
Sayrda .....	12
Alifbe .....	13
Shamol nega shamollamas? .....	14
Suv bilan .....	15
Qo'g'irchoqning qo'ng'irog'i .....	16
Polizda .....	17
Tog'larimga yarasham .....	18
Guvala qildik .....	19
Majnuntol .....	20
Qo'g'irchoq .....	21
Yo'qolgan qulqoq .....	22

**«Kamolot» nashriyoti  
Adabiy-badiiy nashr**

**Farid USMON**  
**QUYOSH RASMI**  
She'rlar

Muharrir: M. Rayimjonov.  
Texnik muharrir: H. Parpiev.  
Musahhih: A. Ismonov.

Bosmaxonaga 12.08.2000-yilda berildi. Bosishga 18.09.2000-yilda  
ruxsat etildi.  
Formati 84x108 ro'znama qog'ozida.  
Futuris garnitura. nashr tobog'i 2,5. 500 nusxada chop etildi  
Buyurtma 0140  
Bahosi kelishilgan narxda.